



TARIXIY-MAISHIY RAQSNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Abdixamidov Akmaljon

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute
Farg'ona mintaqaviy filiali "Sahna nutqi va
san'atshunoslik" kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarixiy-maishiy raqslarni kelib chiqishi tarixi, XV-XVI va XVII asrga mos bo'lgan raqs madaniyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar:

aslzoda, xoreograf, tarixiy-maishiy, balet, baletmeyster.

Abstract: This article provides a detailed overview of the history of historical and folk dances, as well as the dance culture of the 15th-16th and 17th centuries.

Keywords: original, choreographer, historical-domestic, ballet, baletmeister.

Raqs azal-azaldan insonlarning turmush tarzi va maishiy hayoti bilan uzviy bog'liq. Raqs san'ati vujudga kelganidan boshlab xalq raqslari uning asosiy janri bo'lib qoldi. U qadim davrlarda yaratilib va rivojlanib kelganligi, xalqning hayoti, maishiy va mehnatning ajralmas qismi bo'lib qolganligi tabiiy holatdir. Xalq raqsi xoreografiya vositalari bilan insonning ko'p qirrali xarakteri, uning ichki kechinmalarini ochib beradi. U qayerda tug'lsa, o'sha xalqning urf-odatlar, ijtimoiy faoliyati, kechinmalari, harakterlari negizida paydo bo'ladi. Raqs xalqning maishiy hayotidan rivojlanib, ikki turga bo'linadi; xalq raqsi va saroy raqslariga.

Xalq raqslari oddiy xalq orasida tasodifiy paydo bo'lib, oddiy xalq tomonidan ijro etilgan. U raqs insonlarning kundalik hayotlarida ko'pol, chapani, shu bilan birga xushchaqchaq, kulgili harakatlar bilan ijro etilgan. Ular raqs harakatlariga sayqal berishmagan, qanday his qilgan bo'lsa, shunday ijro etgan. Xalq raqslari hayotning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan va insonlarning erkin muloqotini ta'minlagan.

Boy, zadogon, aslzodalar esa xalq raqslarini yoqtirib qolgan harakatlarini o'zlashtirib, uni tabiiyligini, sofligini saqlab qolmagan holda, aslzodalarga xos bo'lgan nafosat, vikor, odob-axloq qoidalariga mos ravishda muhtasham saroylarda ijro etishgan. Shuning uchun ular saroy raqslari deb nom olgan. Saroy raqslari professional

darajada bo'lmasa-da, lekin uning murakkab chizmalari va harakatlari maxsus raqs o'rgatuvchilar tomonidan o'rgatilgan va saroylarning muhtasham zallarida ijro etilgan.

Go'zal honimlar liboslari beldan tepa qismi tor, etak qismi keng shlefli, ko'lak etak qismini nozik qo'llari bilan ushlab, baqquvvat, keng elkali jaanoblar esa tor triko va kalta shim, qomatini ko'rsatib turuvchi oldi kalta, orqasi uzun kamzullar, boshlarida qirrali shlyapalar yoki biretlar kiyib, nozik xonimlar bilan doira shaklida raqslar ijro etishgan. Bu raqslarni iro etish uchun sekinroq harakat qilish kerak edi, chunki tez harakat qilishlariga liboslari yo'l qo'ymas edi. Libos juda ham hashamdor bo'lmasada, juda ham og'ir edi.

Muhtaram janoblar raqs tushish davomida shlyapalarini yechib qo'lga olib, honimlarga ta'zim qilardi, so'ngra yana boshlariga kiyib olardilar yoki bir qo'lidan ikkinchi qo'lga olib harakat qilardi, honimlar esa ko'ylaklarini old qismini ko'targan holda ta'zimlariga alik olardi va shu tarzda uzun ko'ylak ostidan oyoqlarini ko'rinmaslikka harakat qilardilar, qo'llari esa bel qismi to'g'risidan bukilgan edi. Chunki ular har doim bir qo'larida hashamdor ro'molcha yoki yelpig'ich (veer) ushlab vikor bilan raqs tushardi¹.

Shunday qilib honimlarni raqsga taklif qilish qonuniyatlari paydo bo'lgan: honimlarni raqsga taklif qilish uchun janoblar bir jest bilan ta'zim qilardi. Bir ikki qadam qo'yib, qo'llarini dumaloq qilib, keyin boshlaridan shlyapalarini yechib ta'zim qilar edi, shlyapa ostidan yuzlari tusilmasdi. Ba'zan honimlarni tirsagidan, ba'zida esa bilagidan, yoki honimlar barmoqlari ustiga bormoqlarini qo'ygan holda raqsga tushishar edi.

O'tgan asrlarda zadagonlarning o'yin-kulgularini asosiy qismi ball va maskaradlardan iborat edi. Italiya va Fransiyaning birinchi ballari XIV asrda shakllangan. XV-XVI asrlarda ball raqslarini sekin siljishlar, muloyim, sakrashsiz bajariladigan harakatlar ya'ni "Bas-dans"² lar tashkil qilgan. Ular asosan ta'zimlardan, oddiy yurishlardan iborat bo'lgan. Ularni sakrashlariga aristokratik odob—xloq qoidali va og'ir, uzun shlefli liboslari imkon bermagan. Rasq davomida gavdaning mag'rur, tik holatiga ahamiyat berilgan. Xonimlar ko'zlarini yerga qadab, ohista, muloyim, kamtarona raqsga tushishlari kerak edi. Raqsga ijrochilaridan keskin bo'lmagan burilishlar, yarim burilishlar, yengil o'tishlar, sukut saqlash, tanani tebratish, oyoqni kesish harakatlarini bajarishlari talab etilardi. Shu bilan birga ulardan qomatini tik tutish va o'z aro lutfli, qat'iy, batafsil ishlab chiqilgan ta'zimlar ham talab qilinardi. Ushbu qoidalarining barchasini na faqat raqsda, balki kundalik hayotda yurish turishida ham ishlatishlari lozim edi, chunki bu ijtimoiy mavqei, oliyjanoblik belgilari hisoblanar edi. Zadagonlar xalqning to'g'ridan-to'g'ri, chapanicha ijro etgan raqslarini yovvoyi ohang deb hisoblashardi. O'sha davrning urfga kirgan moda raqslari "Pavana", "Allemanda", "Saroy branl"³ lari edi. Tabiiyki, bu rasqlar zadagonlarning boyliklarini, kiyimlarini, zebu-ziynatlarini, mavqeini moda kabi namoyish etadigan raqslarga sirasiga kirardi.

Asosan XV-XVI asr raqslarida oyoqlari kaftlari bir-biriga to'g'ri holatlarda bajarilgan. XVII asrdan boshlab oyoqlarning ochiq holatlari majburiy hisoblangan.

¹ Воронина И. Историко-бытовой танец – Учебное пособие М. Искусство, 2013

² Васильева-Рождественская М.В. Историко-бытовой танец – Учебное пособие М. Искусство, 1987

³ Воронина И. Историко-бытовой танец – Учебное пособие М. Искусство, 2013

Xalq va saroy raqslari XV asrning oxirida avval Italiyada, keyinchalik Fransiyada rivojlangan.

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida raqs san'ati eng ajoyib tarzda Italiyada gullab-yashnadi. Italiyaning raqs o'qituvchilari turli mamlakatlarga taklif qilindi. Italiyalik xoreograflari tomonidan qo'llanilgan uslublar, atamalar raqs tabiati va ijro uslublariga oydinlik kiritdi. Shu bilan birga, qadamalar va sakrashlarga urinishlar, raqs haqidagi birinchi risolalar paydo bo'ldi.

Piacenzadan chiqqan Domeniko yoki Domenikano Italiyaning birinchi raqs tadqiqotchisi hisoblanadi. Domeniko o'zi hech qanday ilmiy risola nashr etmagan, lekin uning shogirdlari taniqli ustozlarining uslublarini diqqat bilan kuzatishgan va uni butun mamlakat bo'yicha tarqatishgan. Parij qo'l yozmasida saqlanib qolgan: Domenico de Piacenza "De art saltandi e choreas discendi" (1416), unda Domeniko usuli bo'yicha raqslarni o'qitish tizimi bayon qilingan.

1455-yili Antonino Karnazanoning raqs haqidagi "Libto dell'arte danzare" kitobi nashr etildi. U bilan vaqtda Margarita Avstriskayaning harakatlar va harakatlarga hamroh bo'lgan kuylari jamlangan "Bassdans oltin qo'lyozma"⁴ si paydo bo'ldi.

XVI asrning 1521-yili Angliyada Robert Komiland bassdanslar darsligini nashr etadi

Italiyada Fabrizio Karosoning 1581-yili "Il Ballerino" kitobi nashrdan chiqdi. Karoso bu kitobida nafaqat raqs harakatlarini, balki harakatlarni tarkibini tizimlashga harakat qilgan. Masalan, u tazimlarni uch turga bo'ladi: "muhim" ("grave"), "kichik" ("minima"), "o'rta" ("semiminima"). O'rta ta'zimlar sakrshlarni o'z ichiga oladi.

1588-yili Frantsuz tadqiqotchilari orasida Turano Arbo "Orxezografiya" asarini nashr etib, alohida o'ringa ega. Unda muallif nafaqat XVI asrning ikkinchi yarmidagi raqslarni, balki branllarni tasnifga katta e'tibor qaratgan holda, avvalgi xoreografik shakllarni batafsil va aniq tasvirlaydi. U raqs kompozitsiyasini, pa va harakatlarning turlarini, ijro uslubini, liboslari va bezaklarining tabiatini batafsil qayd etadi. Tuano Arboning ishi xoreografiyani ommalashtirishga katta yordam beradi va keyinchalik saroy va sahna raqsini jadal rivojlanishiga asos bo'ladi.

Raqs madaniyatining rivojlanishiga ushbu davarda raqs usuliga keng murojaat qilingan musiqa katta hissa qo'shadi.

Uyg'onish davrida Ovropa zodagonlari saroylarida o'ziga xos raqs to'plamlari paydo bo'ladi. Ular asosan raqs tantanalarini ochadigan muloyim raqsar: branl, bassdans, kurantlardan iborat edi. Undan keyin ko'p qismdan iborat bo'lgan jonli, quvnoq raqsar kuzatildilar. Ularga volta, gallyarda, saltarella suitalari kiradi. Vaqtlar o'tishi bilan suitalar murakkablashib boradi. U yangi raqs harakatlarini o'z ichiga oladi va XVII asr oxirida barcha raqslarni shon-shuhrati, mashhurligi bilan soya solgan "Menuet" qo'shiladi.

XVII asrda frantsuz xoreografiyasi, italiyaliklarga qaraganda ancha murakkab, jozibador, nafisroq yangi raqs harakatlari bilan boyitilgan. Maishiy raqsar yarim barmoqlar uchida assemble, jette, glissade, oyoqlarni kesib o'tish, tovonlarni sirpantirish kabi harakatlarni o'z ichiga olardi. Ayollar raqsi texnikasi biroz

⁴Васильева-Рождественская М.В. Историко-бытовой танец – Учебное пособие М. Искусство, 1987

murakkablashadi, pas de bourre kabi kichik harakatlar qo'shiladi. Bunga saroy kiyimlari uslubini o'zgarishi katta hissa qo'shadi. Biroz kalta tikilgan ko'ylaklar oyoqlarning yengil va aniq harakatlarini amalga oshirishga imkon beradi. Xonimlar va janoblar juftliklarining harakatlari yanada jonli va faollashadi. Kavalier xonimni olib borar ekan, ulari biroz o'zidan oldinroqqa surib, qo'llarini aylantiradi. Ijrochilar butun raqs davomida bir-biriga yuzlanib raqsga tushadi.

Frantsuzlar italyan raqslarini o'ziga xos tarzda joziba bilan ijro etib qolmay, balki ularga katta inoyat va nafosat bag'ishlaydi. XVII asr oxirida Ludovik XIV davrida dumaloq shaklda ijro etiladigan raqslar g'ayrioddiy yorqinlikka erishdi. Ular liboslarining hashamdorligi va vaziyatning bayramonaligi bilan hayratga solishdi. Ayniqsa, bu yerda qirollik saroyining odob-ahloq qoidalariga qat'iy rioya etilgan. Minuet qirollik saroyining eng sevimli raqsiga aylanadi. Xalq orasida paydo bo'lgan boshqa ko'plab raqslar singari, Minuet ham aristokratlar jamiyatiga kirib, xalq harakterinisoddaligini yo'qotadi va unga o'z-o'zidan tantanavorlik, ulug'vorlik bag'ishlaydi. Qirollik saroyi odob-ahloq qoidalari raqs chizmalari va ko'rinishlarida o'z izini qoldiradi. Minuet odob-ahloqning go'zalligini, harakatlarning nafisligini namoyish etadi. 1661-yilda Ludovik XIV Parij raqs akademiyasini tashkil etish to'g'risida farmon chiqaradi. Maxsus Qirollik hujjatida aytilishicha, Akademiya imtiyozli sinflarda yaxshi xulq-atvorni tarbiyalashga, harbiylarda yaxshi xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan. Ludovik XIV tomonidan tayinlangan eng yaxshi o'n uchta o'qituvchi ushbu muassasaga rahbarlik qilgan.

Akademiyaning vazifasi quyidagilardan iborat edi:

1. Shaxsiy raqslarning qat'iy shakllarini o'rnatish;
2. Hamma uchun umumiy o'qitish metodikasini ishlab chiqish va qonuniylashtirish;
3. Mavjud raqslarni takomillashtirish va yangidan ixtiro qilish.

Shuningdek, Akademiya raqs o'qituvchilarining bilimlarini sinovdan o'tkazdi, diplomlar berdi va kechalar tashkil etdi. Xoreografiya san'atini ommalashtirishga har tomondan hissa qo'shdi. U mashhur baletmeyster va qirollikning raqs o'qituvchisi Lui Boshan rahbarlik qilgan davrda o'ziga xos tarzda gullab-yashnagan. Akademiyaning ko'plab a'zolari zamonaviy raqs nazariyasini qo'llaganlar. Bularga Fyolye, Pekur, Manyi, Ramolar kiradi.

XVI-XVII asrlarda Fransiyaning maishiy raqsi balet teatri va sahna raqsini rivojlantirishda juda katta pol o'ynaydi. XVI, XVII asrlar va XVIII asr boshlarida opera balet spektakllarining xoreografiyasi bayramlarda ijro etiladigan va dumaloq shaklda ijro etiladigan raqslardan iborat edi. Aristokratlarning raqsalarida (Minuet, tezkor Minuet, gavot) harakatlarning tabiiyligi yo'qoladi (aynan shu vaqtdan klassik baletga kiritilgan barcha raqsalar, tana harakatlarini tartibga solish, qo'llar va oyoqlarni shakllantirish qonunlari paydo bo'ladi). Qo'larning nafisligi, chizmalarning go'zalligi haqidagi g'oyalar balet tamoyillariga kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Васильева-Рождественская М.В. Историко-бытовой танец – Учебное пособие М. Искусство, 1987.
2. Воронина И. Историко-бытовой танец – Учебное пособие М. Искусство, 2013.

3. Akmaljon Abdikhamidov. Representatives of the Uzbek National Dance Art. European Journal of Innovation in Nonformal Education Volume 3, No 11 | Nov - 2023 | Page | 5 <http://innovatus.es/index.php/ejine>.

4. Akmaljon Abdixamidov. BALETMEYSTERNING KO‘P QIRRALI ISTE‘DODI. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz>

5. Abdixamidov Akmaljon [BALETMEYSTER VA UNING IJODIY FAOLIYATI | Oriental Art and Culture](#)

6. U.Boltaboyeva, A.Taslimboyev, “O‘zbek raqs san’atining paydo bo‘lishi varivojlanish tarixi” 64-70 bb. “Lazgi raqsining shakllanish tarixi va tendensiyasi” konferensiyasi, 2024 y. 5-mart.

7. U.Boltaboyeva, Sharq va G‘arb mutafakkirlari merosida yoshlar tarbiyasi masalalari. WORLD OF PHILOLOGY. Scientific Methodical Journal. Volume 5. Issue 2. 5 February 2026. 247-249-betlar.